

ISSN 2181-922X

O'ZBEKISTON

TIL VA MADANIYAT

AMALIY FILOLOGIYA MASALALARI

2024 Vol. 1 (5)

www.aphil.tsuull.uz

Bosh muharrir:

Saodat Muhamedova

Mas'ul kotib:

Elyor Xonnazarov

Tahrir kengashi

Aynur O'zjan (Turkiya), Baydemir Husayn (Turkiya), Alfiya Yusupova (Rossiya), Luiza Samsitova (Rossiya), Almaz Ulvi (Ozarbay-jon), Merveri Ismailova (Ozarbayjon), Abdulhay Sobirov, Shoiri Isayeva, Nargiza Musulmonova, Munira Shodmonova, Oqila Turaqulova, Iroda Azimova, Yekaterina Shirinova, Dilrabo Elova, Xurshida Kadirova, Jumana-zar O'rozov, Xasan Akramov, Ra'no Azizova, Azimjon Davronov.

Jurnal haqida ma'lumot

"O'zbekiston: til va madaniyat. Amaliy filologiya masalalari" seriyasi - Oliy attestatsiya komissiyasi ilmiy nashrlar ro'yxatidagi "O'zbekiston: til va madaniyat" akademik jurnalining ilovasi hisoblanib, unda professor-o'qituvchilar, doktorantlar, stajor-tadqiqotchilar, mustaqil izlanuvchilar, magistrantlarning amaliy tilshunoslik, amaliy adabiyotshunoslik, kompyuter lingvistikasi, o'zbek tilini davlat tili va xorijiy til sifatida o'qitish, nashirlik ishi kabi sohalarga oid tadqiqotlari nashr qilinadi.

Jurnal ilovasi bir yilda ikki marta chop etiladi.

O'zbek, rus va ingliz tillaridagi, shuningdek, boshqa turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi.

Jurnalda kitoblarga yozilgan taqrizlar, adabiyotlar sharhi, konferensiyalar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e'lon qilinadi.

Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

"O'zbekiston: til va madaniyat. Amaliy filologiya masalalari" seriyasi 2022-yildan chiqa boshlagan.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

O'zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103.

Email: aphil@tsuull.uz

Website: <http://www.aphil.tsuull.uz>

MUNDARIJA

AMALIY FILOLOGIYA

Mirvari İsmaylova

Azərbaycan, özbək və digər türk dillərinin tədrisində latın qrafikalı müasir türk əlifbalarının rolu 4

Elyor Xonnazarov

Grammatik shakllarda zamon ma'nosining ko'chishi 15

Ян Бай

Об исследовании фразеологизмов в китайском языке 27

Sayalı Cəfərova

Məxtumqulu Fəraqi Türkmən ədəbiyyatının görkəmli nümayəndəsi kimi 39

O'ZBEK TILINI O'QITISH MASALALARI

Dilafruz Xidoyatova

Maktab ta'limida o'zgaruvchan dunyoga tayyorgarlik..... 45

Екатерина Ширинова

Некоторые принципы и подходы преподавания узбекского языка в многоязычной и поликультурной среде..... 56

PSIXOLINGVISTIKA

Durdona Abdirayimova

Shaxs psixologiyasi va nutq munosabati tadqiqi 65

SOTSILOGIYA

Xasan Akramov, Raxmatilla Raximov

Begonalashuv va tanazzul sotsiologik muammo sifatida 72

QIYOSIY TILSHUNOSLIK

Şəkər Məmmədova

Azərbaycan və özbək dillərində sinonimlər 83

AMALIY LEKSIKOGRAFIYA

E'tibor Yaxshiyeva

Terminologiyada ekvonimiya hodisasi va ekvonimik munosabat masalasi 90

PSIXOLINGVISTIKA

SHAXS PSIXOLOGIYASI VA NUTQ MUNOSABATI TADQIQI

Durdona Abdirayimova¹

Abstrakt

Shaxs psixologiyasi va nutq munosabatini bir qancha fanlar integratsiyalashgan holda tadqiq etishga yordam beradi. Shaxs strukturasi nutqni kodlash va dekodlash jarayonida bevosita ishtirok etadi. Nutqni qabul qilish va qayta ishlash jarayonida temperament, xarakter, oriyentatsiya hamda assotsiatsiyalarni ahamiyati ko'rib chiqiladi. Shu bilan birga, Eysenck PEN (Psixotizm, Ekstraversiya va Nevrotizm) super omillar nazariyasining muloqotdagi ahamiyati ham o'rganilib, shaxsiyatning nutqqa ta'siri qanday holatlarda yuzaga chiqishi hamda psixolingvistik ekspertizada shaxs nutqiga qarab uning psixologik portreti yaratilishi haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: *shaxsiyat, shaxs psixologiyasi, psixolingvistik ekspertiza, nutq, assotsiatsiya.*

KIRISH

Bugungi kunga kelib shaxslar nutqini tadqiq qilish sud psixolingvistik ekspertizasida katta ahamiyatga ega bo'lmoqda. Bunday talabning paydo bo'lishiga ijtimoiy tarmoqlarda va ijtimoiy hayotdagi ko'plab muammoli yozishmalar va xatti-harakatlar sabab bo'lmoqda. Nutqni psixologik hamda tilshunoslik tarafdin tekshirish talabi ekspertiza jarayonida anonim bo'lgan yozishmalarni hamda muammoli deb topilgan yozishmalarni kompleks ekspertizadan o'tkazish uchun ahamiyatli hisoblanadi. Kompleks ekspertizaning bir tarkibi sifatida biz shaxs psixologiyasi va nutq munosabatini tadqiq qilishning metodologik asoslari qanday bo'lishi kerak degan savolga javob topamiz.

¹ *Abdurayimova Durdona* – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktranti.

E-manzil: abdurayimovadurdona21@gmail.com

ORCID:0009-0000-1902-1651

Iqtibos uchun: Abdurayimova, D. 2024. "Shaxs psixologiyasi va nutq munosabati tadqiqi". *O'zbekiston: til va madaniyat. Amaliy filologiya*. 1(5): 65-71.

DOI: 10.52773/tsuull.aphil.2024.1.5/NECN4632


ASOSIY QISIM

Shaxs psixologiyasi va nutq munosabati tadqiqida biz bir qator fanlarga tayanamiz va ular bevosita psixolingvistik ekspertiza bilan aloqada. Ular quyidagilar:

1. Lingvistika.
2. Semiotika.
3. Psixologiya.

Shaxs psixologiyasi - psixologik, nutq - lingvistik, ularning o'zaro munosabati sud-huquq tizimida kriminalistik va ekspertologik tadqiqot jarayonida ahamiyatli hisoblanadi. Shaxs psixologiyasi va nutq munosabati metodologiyasida munozarali yozishma turlarini aniqlash, tahlil bosqichlarini belgilash, natijalarni taqqoslash hamda yakuniy xulosa berish psixolingvistik ekspertiza uchun zarur.

Shveytsariyalik olim Rishar Meyli qarashlariga ko'ra, shaxs deganda, har bir insonni tasniflaydigan psixologik xususiyatlar- ning yig'indisini tushunamiz. Kengroq ma'noda, shaxs termini xarakter, temperament, qobiliyatni o'z ichiga oladi [Baxriyeva 2021, 5]. Shaxs psixologiyasi bu temperament, xarakter va tajribalar yordamida shakllanadi va u doimiy rivojlanishda bo'ladi. Shaxs psixologiyasining tarkibiy qismlaridan faqat temperament barqaror bo'lib u o'zgarmaydi, qolgan kategoriyalar esa rivojlanib borib, shaxsning nutqiga ta'sir o'tkazadi. Shaxsning nutqiga ta'sir etuvchi omillar uning psixologiyasi va boshqa jarayonlarga bog'liq bo'ladi.



1- rasm.

“Shaxs psixologiyasi – shaxs individualligini o'rganadigan psixologiyaning sohasi hisoblanadi. Psixologiyaning ushbu sohasi psixologik bilimlarni analitik prinsiplar asosida tushuntiradi. Analitik prinsiplarni qo'llash aniq ilmiy qiziqishlarning u yoki bu psixologik omillarini tahlil qilishni bildiradi [Baxriyeva 2021, 4].

Shaxs psixologiyasi va nutq o'zaro ikki xil munosabatda bo'lib, yuqoridan quyiga quyidan yuqoriga shaklida, ya'ni shaxs psixologiyasining nutqqa yoki nutqning shaxs psixologiyasiga ta'sir-

ri ko'rinishida namoyon bo'ladi. Bu jarayonni S (stimul) va R (reaksiya) deyishimiz mumkin. Bu S ba'zan ichki tomondan va ba'zan tashqi tomondan berilishi mumkin, jarayon qanday bo'lishi shaxs psixologiyasidan tashqari assotsiatsiya va nutqning shakliga yoki mazmuniga ham bog'liq bo'ladi. Demak, shaxs psixologiyasi va nutq munosabatida temperament, xarakter, qobiliyat va oriyentatsiyadan tashqari assotsiatsiya ham muhim hisoblanadi.

Shaxs psixologiyasi tajribalar bilan boyib, shaxsiyatga aylandi. Shaxs psixologiyasini umumiy qilib shaxsiyat deb olishimiz mumki, chunki psixodinamik, kognitiv va analitik nazariyalarning jamlanmasiga ko'ra shaxsiyat tajriba, xarakter va eng asosiysi tug'ma hisoblangan temperamentlar yig'indisidir. Shaxsiyatning bu tarkibiy qismlari shaxsning xatti-harakatlari, emotsiyasi hamda nutqiga o'z ta'sirini o'tkazadi. Psixologiya akslanishi uchun nutqiy qobiliyat ham juda muhim hisoblanadi, u xoh verbal xoh noverbal bo'lsin.

Shaxsiyatning tarkibiy qismlaridan biri bo'lgan temperament (mijoz) haqida Geppokrat, Galen, Seago va Abu Ali ibn Sino kabi qomusiy olimlar o'z nazariyalarini ilgari surishgan keyinchalik I. Povlov temperamentlarni tadqiq qilishda oliy nerv tizimi faoliyatining qo'zg'aluvchanlik va tormozlanishiga ko'ra tadqiqot olib bordi. I. Povlov reflekslar nazariyasini o'rgangandan so'ng asab tizimining 4 turi bor ekanligini aniqladi va uning tadqiqoti natijasi Geppokrat nazariyasi bilan juda ham o'xshash edi. Asab tizimi quvvati va zaifligiga ko'ra ikki turga ajratadi.

I.Pavlovning tadqiqotlariga ko'ra, nerv tizimining tulari temperament xarakteri bo'yicha ham Geppokrat nazariyasiga mos. Quyida temperament turlari:


1. Mobil tur – baquvvatligi va kuchi bilan ajralib turadi – sangvinik.
2. Inert turi – kuchi va osoyishtaligi bilan ajralib turadi – flegmatik.
3. Kuchli va muvozanatsiz tur – hayajon ustunlik qiladi – xolerik.
4. Zaif turi – melanxolik.

Nerv tizimining turi (xuddi temperament kabi) tug'ma xususiyatdir. O'zgartirish deyarli mumkin emas. Bundan tashqari, asab tizimining turi temperamentning fiziologik asosi hisoblanadi. Va u o'z navbatida, NS tipining ruhiy namoyonidir [2024. 01.01].

Shaxsiyatni tadqiq qilishda Eysenck PEN (Psixotizm, Ekstraversiya va Nevrotizm) super omillar nazariyasini yillar davomida ilgari suradi va hozirda shaxsni psixologiyasini o'rganishda shu nazari-

yaga ham tayaniladi. Eysenck nazariyasida Shaxsiyat uch super omil orqali tadqiq etiladi. U qadimgi yunon falsafasidan ma'lum bo'lgan (Gippokrat, miloddan avvalgi 400 y.) shaxsiyat turlarini omillarga moslashtirish uchun ajratdi va beqaror shaxslarni ekstravertda xolerik va introvertda melanxolik, barqaror shaxslar esa introvertde flegmatik, ekstravertde esa sangvinik deb belgilaydi [Tim 2015, 5].

Psixotizm, eksraverisya va nevrotizm kabi shaxsiyat xususiyatlari yuzaga chiqishi uchun avvalo, muloqot bo'lishi lozim. Psixotizmde shaxs nima haqiqiy yoki haqiqiy emasligini ajratishda, ya'ni anglashda qiynaladi, bu ongning ma'lum bir holati bo'lsa, nevrotizmde shaxs salbiy his-tuyg'ularni his qilishi. Bu bo'yicha yuqori ball olgan shaxslar salbiy bo'lgan xavotir, tushkunlik, yolg'izlik, g'azab, ayibdorlik kabi his-tuyg'ularni boshidan kechiradi. Ekstraveriya shaxsning ochiqligi bo'lib, uning qarshisida interaversiya bor. Interaveriyada shaxs yopiq bo'ladi. Ochiqlik va yopiqlik bir vaqtning o'zida bir shaxsda mavjud bo'lsa ham, uning faqat bittasi dominant hisoblanadi. Kuchli bo'lgani yuzaga chiqadi. Eysenck umri davomida shaxsiyatga xos shu uch jihatni tadqiq etdi.



2- rasm. Eysenck shaxsiy xususiyatlar nazariyasi.

Bizningcha, shaxsiyatning o'ziga xosligi, ya'ni psixologik va biologik nazariyalarga ko'ra umumiylik bor, bu nazariyalarga tayangan holda biz til o'zlashtirishda shaxs psixologiyasining

o'rni katta deb hisoblaymiz, shu bilan birga, shaxslar tilni qanday o'zlashtirsa, uning aksi shaxslar nutqida akslanadi, chunki inson olgan bilimni malakadan ko'nikmaga aylantiradi. Inson o'rganmagan bilimni o'rgata olmaydi. Til o'rganish ijtimoiy hodisa ekanligini tasdiqlagan holda shaxsiyat tilni qanday o'zlashtirishga va uni qanday akslantirishga ta'sir qiladi. Hissiy holatlar nevrologiya, ma'lumotni qayta ishlash va yuqori darajadagi idrokni birlashtiradi va ularni elementar tarkibiy qismlarga tushirish qiyin, biroq E va N ning hissiy atributlarini umumiy moslashuvni qo'llab-quvvatlovchi sifatida ko'rish mumkin. Misol uchun, salbiy ta'sirga nevrologik va kognitiv sezgirlik noaniq tahdidlar uchun hushyorlikni saqlashga xizmat qiladi, ammo bu stressli vaziyatlarda javobgarlikdir [Gerald 2008, 75].

Shaxs psixologiyasining nutq jarayoniga bevosita ta'sirlari:

- nutqni boshlash va tugatish jarayoniga;
- izchilligiga;
- tezligiga;
- aniqligiga;
- ishonchliligiga;
- ravonligiga;
- hissiyligiga;
- nutq muvozanatiga;
- tezkorlikka;
- nutq hajmi kabilarga.

Madeleine Bruce, Tyler C. McFayden, Thomas H. Ollendick, Martha Ann Bellar "Go'daklik va yoshlikdagi ifodali til: bola temperamentining roli va ota-onalarning xatti-harakatlari" mavzusida olib borilgan tadqiqotlar xulosasiga ko'ra, ... onaning g'amxo'rliqi va bola temperamenti tug'ruqdan keyingi birinchi va ikkinchi yillarda bolalarning ifodali tilining turli jihatlariga farqli ravishda ta'sir qilishini ko'rsatadigan birinchi tadqiqotdir. Bizning izlanishlarimiz shuni ko'rsatadiki, ota-onalik emas, balki temperament chaqaloqlik davridagi ifodali til (ya'ni, imo-ishoralar) bilan bog'liq, holbuki temperament ham, g'amxo'rlik ham bolalikda ifodali tilga ta'sir qiladi [2024. 01.02].

Temperament tug'ma bo'lib, bolaning xati-harakatlariga va imo ishoralarida namoyon bo'lsa-da, bu yerda ota-onaning roli ham muhim, lekin shuni ham alohida ta'kidlash kerakki, bir ota-onadan tarbiya ko'rgan farzandlarning nutqi o'ziga xos bo'ladi. Bundan tashqari, biz chaqaloqning salbiy ta'sirchanligi va chaqaloq jumllarining murakkabligi o'rtasidagi bashoratli

aloqani ko'rsatamiz. Biopsixosotsial omillar o'rtasidagi sababiy bog'lanishlarni va mumkin bo'lgan ikki tomonlama munosabatlarni aniqlash uchun qo'shimcha tadqiqotlar zarur bo'lsa-da, bu topilmalar erta bolalik davridagi tilni o'zlashtirishda bolaning temperamenti va onaning ota-onasini birgalikda ko'rib chiqish kerakligini ko'rsatadi [2024. 01.02].

Bundan anglashiladiki, shaxsning til o'zlashtirishida temperamentdan tashqari ota-ona va oilaning e'tibori ham muhim. Bizningcha, temperament nerv tizimining qo'zg'aluvchanligi va tormozlanishi bo'lsa, inson ongida fikrlar tizimini shakllantirishda, ya'ni kodlash va dekodlash jarayonida katta rol o'ynaydi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Shaxs psixologiyasi va nutq munosabati psixolingvistik ekspertiza jarayoni uchun katta rol o'ynaydi, chunki shaxs nutqida uning ruhiy holati, uslubi, nutqiy vaziyatlari akslanib, kompleks ekspertiza uchun asos bo'ladi. Nutqni qanday qabul qilish va uni qayta ishlash jarayonida shaxs strukturasi bilan birgalikda assotsiatsiya ham muhim hisoblanadi. Shaxs psixologiyasi nutqqa yoki nutq shaxs psixologiyasiga ta'sir etishi mumkin.

Adabiyotlar

- Baxriyeva, N.A. 2021. Shaxs psixologiyasi. O'quv-uslubiy majmua. Buxoro.
- Gerald, Matthews. 2008. Personality and Information Processing: A Cognitive-Adaptive Theory. Personality Theory and Assessment. London.
- Tim, P. 2015. Personality in Speech Assessment and Automatic Classification. Berlin.
- <https://uz.vogueindustry.com/17318298-pavlovs-theory-basic-provisions-principles-and-significance> [2024. 01.01].
- <https://doi.org/10.1002/dev.22287> [2024. 01.02].
- <https://doi.org/10.1002/dev.22287> [2024. 01.02].

PERSONALITY PSYCHOLOGY AND SPEECH COMMUNICATION RESEARCH

Durdona Abdurayimova¹

Abstract

In the study of personality psychology and speech communication, several disciplines help to integrate research. The personality structure is directly involved in the process of speech encoding and decoding. The importance of temperament, character, orientation and associations in the process of receiving and processing speech is considered. At the same time, the importance of the Eysenck PEN (Psychoticism, Extraversion and Neuroticism) theory of super factors in communication is also studied, in what cases the influence of personality on speech occurs, and in psycholinguistic expertise, a psychological portrait of a person is created based on his speech.

Key words: *personality, personality psychology, psycholinguistic expertise, speech, association.*

References

- Baxriyeva, N.A. 2021. Shaxs psixologiyasi. O'quv-uslubiy majmua. Buxoro.
- Gerald, Matthews. 2008. Personality and Information Processing: A Cognitive-Adaptive Theory. Personality Theory and Assessment. London.
- Tim, P. 2015. Personality in Speech Assessment and Automatic Classification. Berlin.
- <https://uz.vogueindustry.com/17318298-pavlovs-theory-basic-provisions-principles-and-significance> [2024. 01.01].
- <https://doi.org/10.1002/dev.22287> [2024. 01.02].
- <https://doi.org/10.1002/dev.22287> [2024. 01.02].

¹ *Abdurayimova Durdona* – Doctoral student of Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi.

E-mail: abdurayimovadurdona21@gmail.com

ORCID: 0009-0000-1902-1651

For citation: Abdurayimova, D. 2024. "Personality psychology and speech communication research". *Uzbekistan: Language and culture. Issues of Applied philology*. 1(5): 65-71. DOI: 10.52773/tsuull.aphil.2024.1.5/NECN4632

Jurnal 2017-yil 26-oktyabrda O'zbekiston Respublikasi Matbuot
va axborot agentligi tomonidan № 0936 raqam bilan ro'yxatdan o'tgan.
Tahririyatga kelgan maqolalar mualliflarga qaytarilmaydi.

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasi tomonidan
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc)
dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalari chop etilishi lozim bo'lgan ro'yxatga
kiritilgan (30.10.2021. № 308/6).

Manzil: Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos
Hojib ko'chasi 103-uy.
Telefonlar: +99871 281-45-11, +99871 281-41-93.
Website: www.uzlc.navoiy-uni.uz
E-mail: uzlangcult@gmail.com

Bosishga 27.02.2024-yilda ruxsat etildi.
Bichimi 70x100 1/16, Ofset bosma. "Cambria" garniturasida.
Nashr b.t. 7.

"O'zbekiston: til va madaniyat" jurnali tahririyatida
tayyorlandi va sahifalandi.
"YASHNOBOD NASHR" bosmaxonasida chop etildi.
Adadi 300 nusxa. Buyurtma №3.
Bosmaxona manzili: Toshkent shahar Yashnobod tumani,
58-a harbiy shaharcha.